

IRODAVIY HARAKATLAR VA ULARNING BOSHQARILISHI

Baxtiyorova Ferangiz Murodali qizi

Buxoro davlat universiteti tarix va yuridik fakulteti

5.2 PSIA guruh talabasi

Anotatsiya: *Insonning maqsadga erishishga yo'naltirilgan irodasi, uni ong orqali boshqarilishi. Hamda insonning irodaviy sifatlari, kuchi, uning nerv fiziologik asoslari, individual xususiyatlari, fenomenlari shu bilan birga irodaviy kasalliklar va uni o'rganishning har xil bosqichlari usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Iroda, ong, motiv, motivatsiya, faoliyat, maqsad, fenomen, xulq atvor individual, abuliy, apraksiya*

Anotation: *The will of person, directed towards the achievement of the goal, its control through consciousness. As well as information about the volitional qualities of a person, his strength, his nervous physiological basis, individual characteristics, phenomena, as well as the methods of volitional disorders and various stages of its study.*

Keywords: *Will, cognitive, motive, motivation, activity, purpose, phenomenon, ethic, individual, abulia, apraxia*

KIRISH

Iroda kishining o'z xati harakatlarini ongli ravishda boshqarishi, bir qator intilish va istaklarni tiyib turishni taqazo etadi. Irodaviy harakat shundan iboratki, bunda odam o'z o'zini idora qila oladi, o'zini o'zi qo'lga oladi, o'z his tuyg'ularini nazorat qilib qolgan paytlarda ularni bosa oladi. Irodaning namoyon bo'lishi ish harakatlarda ongning ishtirok qilishi bilan bog'liq bo'lgan shaxs faoliyatidir. Ko'pincha irodaviy faoliyat odamning hayot yo'lini aniqlaydigan, uning ijtimoiy qiyofasini ko'rsatadigan qarorlarga kelish bilan bog'liq bo'ladi. Bunda burch hissi, vatan va xalq oldidagi burchni aniq anglash namoyon bo'ladi. Bularga misol qilib, vatan urushi davridagi kishilarning qahramonliklarini ko'rsatish mumkin. Ijtimoiy tarixiy sahifalarimizda, yaqin o'tmishimizda va istiqloq davrida ko'plab vatandoshlarimiz irodaviy xatti harakatlarning namunaviy ko'rinishlarini namoyon qilganlar, bular rasmiy manbalarda va badiiy adabiyotlarda keng ko'lamda yoritilgan. Masalan, buyuk sarkarda Amir Temur Ko'ragoniyning "Kuch adolatdadir" degan hikmati, Alisher Navoiyning "Zanjirband sher - yengilmas der" xitobi, Cho'lponning "Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir" chaqirig'i

javobgarlikni yuksak his etadigan holda xalqning xohish irodani ifoda qilib, qat'iy irodaviy xatti harakatlarni amalga oshirganlar, shu bilan birga ular o'zlarining manaviy, qadriy, ruhiy, qiyofalarini chuqur va ko'pyoqlama ochib berisgha musharraf bo'lganlar. Yuqoridagi mulohazalardan tashqari, faoliyatning o'zioga xos psixologik xususiyatlari ham mavjuddir va ular muayyan tavsiflarga ma'lumotlarga asoslanib talqin qilinadi.

ASOSIY QISM

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, inson ongining mohiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar to'planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga keigan. XVII asrdayoq Gobs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faolli manbai bemahsul sohaning paydo bo'lishi, deb tushuntirish mumkin emas, chunki uning shaxsiy kuch-quvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qarash lozim. Unga bunday yondashish irodaning ilmiy nuqtai nazardan tushunturishni shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi. V.Vuntning mulohazasicha irodaning negizida appersepsiya aktining subyeksi tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsional va affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keladi. U.Djeymsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadir. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega xususiyatga ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning (harakatning) vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorlik qilishidir.

Insondagi ixtiyoriy harakatlar insonni irodasi bilan bog'liq harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Insonning irodaviy harakati ikki xil, ya'ni aqliy va jismoniy bo'ladi. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin va sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlari olib boorish kabilari kiradi. Ko'p marta takrorlanib, o'zlashib kelgan, ko'nikma va malakalarga aylangan harakatlardandir. Irodaviy harakat insonning xatti harakatlarini uning borliqqa nisbatan ongli shaxs sifatida o'z oldiga qo'ygan ustuvor maqsadlari mohiyatidan kelib chiqqan holda boshqaradi. Shaxs bu asnoda, o'zining tanlagan ideallariga, uni yo'naltiruvchi g'oyalariga, ishonch – etiqotlarga, qarashlariga, o'zga

kishilar beradigan baholarga, o'ziga o'zi baho berish mezonlariga nomutanosib istaklar, xohishlar, tilaklar, vujudga keltirmaslikka, ularni to'xtatishga yoki batamom bartaraf etishga intiladi. Bu holat tahlili shundan dalolat beradiki, iroda bu o'rinda shaxsning xatti harakatlarini jilovlash (to'xtatish) nazorat qilish boshqarish, chetga og'ishdan saqlash (cheklash) funksiyalarini aks ettiradi. Irodaning xatti harakatlarini boshqarish funksiyasini shaxs uchun noxush, noqulay, yoqimsiz, xohish – istak, harakat va intilishni cheklash, to'xtatish tiyish kabilardan iborat bo'libgina qolmay, balki inson shaxsiy faolligini muayyan jabhaga sohaga yo'naltirish, o'z harakatlari quvvatini oshirish, barcha narsalarni umumiy maqsadga muvofiqlashtirishdan iboratdir. Irodaviy harakatlar hamisha shaxsni faollikka chorlaydi, uni qat'iy yo'l belgilash sari yetaklaydi, barqaror harakat qilishga yo'naltiradi, ikkilanish shubhalanishning oldini oladi. Irodaviy harakatlar va ularning boshqarilishi.

1. Maqsad va unga erishishga intilish.
2. Maqsadga erishish imkoniyatlarini toppish.
3. Motivlarni paydo bo'lishi va imkoniyatlarini mustahkamlash.
4. Motivlarni kurashi va ularni tanlash.
5. Biror fikrni qabul qilish.
6. Qabul qilingan qarorni amalga oshirishdir.

Maqsadga erishish yo'llari va vositalarini tanlash jarayoni rejalashtirish motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga keklishi bilan tugaydi. Qarorga kelish muayyan bir maqsadga erishish yo'lidagi harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Tez qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojiga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatiga, hissilotiga, tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi va bilimlariga, dunyo qarashi, temperament va xarakteriga, boshqa kishilarning maslshati, buyrug'i, takliflariga bog'liqdir. Bundan tashqari, maqsadning ahamiyatligiga, birorta qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga ham bog'liq bo'ladi. Qatiyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdangina emas, balki qarorni tez va dadil bajarishda ham zohir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni belgilangan muddatda bajarish qatiyatni namoyish qilish demakdir. Qabul qilingan qaror mustahkam va bo'sh bo'lishi mumkin, bir marta qabul qilinib, keyinchalik o'zgartirilmaydigan va ma'lum vaqt davomida, albatta, bajariladigan qaror qat'iy va mustahkam qaror deyiladi. Qaror qabul qilinsayu, keyin yo o'gartirilsa yoki boshqa yangi qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday qaror

bo'sh qaror deyiladi. Qat'iy va musdtahkam qarorga kelish irodaning ijobiy xususiyatidir. Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni qarorni ijro etish deyiladi. Irodaning eng muhim va asosiy bosqichi qarorni ijro etishdir. Shuni ham eslatib o'tish keraki, qarorga kelish, uni amalga oshirishda qiyinchiliklarni bartaraf etishda irodaviy zo'r berish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat psixologik holatlarda inson tomonidan qarorga o'z ehtiyojlarining ustuvorligi darajasi ta'sirini zaruriy chora tariqasida yengish bilan uyg'unlashgan, jiddiylik, zo'riqish xususiyatli ichki zo'r berish jarayoni bilan uzviy bog'liqlikka ega. Shaxs o'zidagi qarama – qarshiliklarni yengishga nisbatan bunday munosabat (zaruriyat) birinchidan, subyektning ayrim istaklari, mustahkamlangan salbiy odatlari; ikkinchidan, turmush hodisalariga nisbatan ko'nikish hissi; uchinchidan, ma'qullanilmagan axloq – odob prinsiplari, an'analar bilan kurashning kechishi irodaviy harakatining o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan xislati (sifati) irodaviy zo'r berish bilan iroda ifaodalanadi. Irodaning individual xususiyatlari va fenomenlari mavjud bo'lib, inson faoliyatining maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni taminlaydi. Iroda shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilmadan iborat bo'lib, u o'zini o'zi boshqarish sifatida dastaval o'ziga, o'z hissiyotiga va xatti harakatlarga hukmronlik qilishda aks etuvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchiga yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlari, sifatlari, xislatlari, illatlari to'g'risida mulohaza yuritiladi. Irodasi sustligining patologiyasi mavjud bo'lib, ular abuliya (yunoncha, qatiyatsizlik) degan ma'noni anglatadi. Apraksiya (yunoncha argaxla harakatsizlik) degan ma'noni anglatadi.

Abuliya – bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini to'g'ri fahmlagan abuliya kasali bilan shikastlangan bemor biror narsani bajarishga o'zini mutlaqo yo'llay olmaydi.

Apraksiya – miya tuzulishining shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzulishidan iborat psixopatologik holatdir. Nerv to'qimalarining buzulishi miyaning peshana qismlarida yuz bersa, u holda xatti harakatlarni erkin to'g'rilashda buzilish namoyon bo'ladi, natijada iroda akti (harakatlari) qiyinlashadi. Abuliya va apraksiya – psixikasi og'ir kasallangan insonlarga xos,

nisbatan noyob, fenomenal psixopatologik hodisalardir. Lekin pedagogik faoliyatda uchraydigan irodaning sustligi miya patologiyasi bilan emas, balki noto'g'ri tarbiya mahsuli bilan ifodalanadi. Iroda sustligining yaqqol (tipik) ko'rinishlaridan biri bu yalqovlik hisoblanib, shaxsning qiyinchiliklarini yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch – g'ayrat ko'rastishni qat'iy ravishda istamasligida o'zini aks ettiruvchi illatdir, Yalqovlik – shaxs o'zligi irodaviy sustligining uning hayotga loqaydligining ifodasidir. Yalqovlik – shaxsning ruhiy qiyofasi bo'lib, uzliksiz tarbiyalash orqali bartaraf etish imkoniyati mavjud ruhiy nuqsondir.

XULOSA

Men xulosa qilib shuni aytamanki, insondagi har bir maqsad yoki har bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotdan ongi va aqli bilangina emas, balki irodaning mavjudligi bilan ham ajralib turadi. Insonning irodasi esa uning faoliyatida va irodaviy harakatlarida namoyon bo'ladi. Insonning irodaviy harakatlarida maqsad aniq bo'ladi. Bunda odam o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intilib boradi. Buni tushunish uchun talabalarni misol keltirsak ham bo'ladi. Talaba universitetning 1- kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi, shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettiradi. Shu bilan birga irodaning eng muhim xususiyati undagi faoliyatni amalga oshirishda puxta o'ylangan rejaning mavjudligida deb o'ylayman. Chunki, avvaldan rejalashtirilmagan xatti harakatni irodaviy harakat deb bo'lmaydi. Hamda iroda avvaldan mavjud bo'lamagan, lekin faoliyat natijasiga erishishdan so'ng hosi bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborni qaratishdir. Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z o'zini anglash demakdir. Demak, inson irodasi orqali o'z o'zini anglashi, o'z hayot yo'li o'z taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. T. TDPU 2010y
- 2.G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya. 1-2 kitob T. 2002 y
- 3.Davletshin M.G Umumiy psixologiya. T- 2002Y
- 4.Xuseynova. A. Nazarov.A Umumiy psixologiya .T. 2021y

5.Ivanov.P.I. Zufarova.M.E. Umumiy psixologiya. T. 2021y